



Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences

Journal home page:
<http://ijournal.uz/index.php/jartes>



VOL. 1, ISSUE 4
The Journal of Academic
Research and Trends in
Educational Sciences

ISSN 2181-2675 www.ijournal.uz

PRIORITY DIRECTIONS OF BUSINESS AND ENTREPRENEURIAL INVESTMENT IN OUR COUNTRY

Xaydarov Baxrom Xolmuradovich¹

Norboboyev Jasur Shuhrat ugli²

Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan

KEYWORDS

Financial activity, profit, profit, credit, resources, capital, market economy

ABSTRACT

In this article, we will establish and implement a sustainable direction of investing in small businesses and private entrepreneurship in the Republic of Uzbekistan.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.7429732

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Teacher, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, UZB (baxrom3500@gmail.com)

² Student, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, UZB (jasurbeknorboboyev82@gmail.com)

MAMLAKATIMIZDA BIZNES VA TADBIRKORLIKNI INVESTITSIYALASHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

KALIT SO'ZLAR:

Moliyaviy faoliyat, moliyaviy ahvol, foyda, kredit, moliyaviy resurslar, kapital, bozor iqtisodiyoti.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xusuiy tadbirkorlikni investitsiyalashning ustuvor yo'nalishini yo'lga quyish va uni amalga oshirish yo'llari o'rganiladi. Hamda xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarini yaxshilashdan iborat.

Investitsiya (lotincha: investio — „o'rash“) — iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida o'z mamlakatida yoki chet ellarda turli tarmoqlarga, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarga, innovatsiya, tadbirkorlik loyihalariga uzoq, muddatli kapital kiritish (qo'yish). Pulning vaqt (zamon)ga bog'liq qiymati nazariyasiga ko'ra, investitsiya kelajakda naf olish maqsadida mablag'lar qo'yishdir. Investitsiya kapitalni muayyan muddatga bog'lashni yoki band qilishni bildiradi. Bundan asosiy maqsad kapital qiymatini saqlab qolish yoki bo'lmasa kapital qiymatini vaqtda o'stirib borishdir. Iqtisodiy mazmuni jihatdan investitsiya turli faoliyatlarga safarbar etilgan moddiy, nomoddiy boyliklar va ularga bo'lgan huquqlarni aks ettiradi. Investitsiya sifatida pul, qimmatli qog'ozlar (aksiya, obligatsiya, sertifikat, veksel), yer, bino, inshoot kabi boyliklar, intellektual mulk bo'lgan ilmiy kashfiyotlar, ixtiolar va b. ishlatiladi. Investitsiya loyihalariga mablag' qo'yuvchilar — investorlar davlat, kompaniya, korxona, chet ellik fuqarolar, aholi va boshqalar bo'lishi mumkin. O'zbekistonda kichik biznes korxonalarini barpo etish orqali mustaqil xo'jalik yurituvchi mulk egalari shakllandi. Kichik biznes korxonalari bozor iqtisodiyotiga xos turli makroiqtisodiy shart-sharoitlar va talablariga moslashishi imkoniyatlariga egaligi bilan ustuvor ahamiyatga ega. Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish milliy iqtisodiyotimiz barqarorligini ta'minlashning muhim makroiqtisodiy omillaridan biri hisoblanadi. Keyingi yillarda kichik biznes taraqqiyotining keskin avj olishi natijasida ularning mamlakatda yaratilayotgan yalpi ichki mahsulot salmog'idagi ulushining ortib borayotganligi bilan izohlash mumkin. Kichik biznes iqtisodiyotning shunday sektoridirki, u investitsiya muhitida yuz berayotgan deyarli barcha o'zgarishlarga moslashadi. Kichik biznes nuqtai nazaridan investitsiya muhitining jozibadorlik darajasini aniqlash uchun butun mamlakat va mintaqalardagi iqtisodiy vaziyatni ko'rsatuvchi omillar, iqtisodiyotning bu tarmog'iga investitsiyalar kiritish qonunlar va infratuzilmalar bilan qanchalik ta'minlanganligi, mintaqada bozor infratuzilmasining rivojlanish darjasasi, malakali ishchi kuchining mavjudligi shuningdek mana shu va boshqa omillar bilan bog'liq xatarlar bor yoki yo'qligi g'oyat muhimdir. Hozirgi davrda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishiga unga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma muassasalarining tashkil etilishi va xizmat sifati darajasining yaxshilanib borishi sezilarli

ta'sir ko'rsatmoqda. Buning natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yeqtlarining mamlakatimizda yangi ish o'rinalini tashkil qilish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishning muhim omili sifatidagi natijalari salmoqli bo'lib bormoqda. Xususiy tadbirkorlikning asosiy xususiyati shuki, uning uchun mintaqaviy omillar qoida tariqasida, investitsiyalar jalb etish jarayoniga ta'siri jihatidan ustunlik qiladi. Investitsiyaviy muhit tahlilini tarmoqlar bo'yicha olib boorish zarurligini ko'rsatib o'tish kerak. Chunki, ijobjiy investitsiyaviy omillar turli tarmoqlar uchun o'ziga xos jihatlarga ega. Ba'zi hollarda bir tarmoqda ijobjiy rol o'ynashi mumkin bo'lgan omillar boshqa tarmoq uchun salbiy bo'ladi yoki agar muayyan tarmoq uchun biron-bir ko'rsatkich yyetarli darajada namoyon bo'lsa, shu ko'rsatkchning o'zi boshqa tarmoqning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun mutlaqo kam bo'lishi mumkin.

O'zbekistonda kichik tadbirkorlik uchun tarmoqlar bo'yicha investitsiya muhiti alohida qiziqish tug'diradi. Kichik biznes uchun o'ziga xos ba'zi ko'rsatkichlar sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

- kichik tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi va infratuzilmasini rivojlantirishning mintaqaviy ko'rsatkichi;
- egallab turgan bozor sektorlari bo'yicha (masalan, xizmatlar yoki savdo sohasida) raqobatlashuvchi yirik firmalarning mavjudligi va rivojlanish darajasi;
- mahalliy bank tizimining rivojlanish darajasi va boshqa omillar.

Kichik korxonalar o'zlariga xos xususiyatlar tufayli investitsiya resurslarini jalb etish uchun xizmat qiladigan ko'p sonli manbalarning ayrimlaridangina foydalana oladilar. Masalan, shuni qayd etish kerakki, kichik tadbirkorlikdagi ichki moliyalash manbalari tadbirkor o'zini o'zi investitsiyalashi uchun beradigan imkoniyatlar yirik firmalarning imkoniyatlari darajasida emas. Shunga qaramay, bu manbalardan kichik tadbirkorlikda foydalanish sezilarli samara berishga qodir bo'lib, jalb etish samaradorligi jihatidan bir qancha afzallikkarga ega. Shunday qilib, investitsiya resurslarini shakllantirishning qulay manbalari sonini ko'paytirish hamda mavjud manbalardan foydalanish samaradorligini oshirish hozirgi vaqtida, birinchi navbatda, kichik tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tuzilmalarining muhim vazifasi bo'lib qolmoqda.

O'zRda 1996-yildan boshlab respublika hukumati har yili davlat byudjeti va byudjetdan tashqari fondlar mablag'lari hisobidan kapital qo'yilmalar limitlari, chet el investitsiyalari va hukumat kafolati bilan olingan kreditlar hisobiga aniq qurilishlar dasturi, shuningdek, bevosita chet el investitsiya va kreditlari hisobiga qurilishlar dasturidan iborat bo'lgan Davlat investitsiya dasturini qabul qiladi. Respublika iqtisodiyotiga investitsiya kiritishda davlat byudjeti mablag'lari, chet el investitsiyalari, korxonalarining o'z mablag'lari va aholi jamg'armalari qatnashmoqda. Respublikada aholining qimmatli qog'ozlarga jamoaviy investitsiyani amalga oshiradigan xususiylashtirish investitsiya fondlari (XIF) va kompaniyalari tarmog'i rivoj topdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мухтаров Б. А. Имитационная система прогнозирования факторов в легкой промышленности //Молодой ученый. – 2017. – №. 40. – С. 122-124.
2. Мухтаров Б. А., Ортиков Ё. Ю. Культурное и экономическое развитие туризма в Узбекистане //Молодой ученый. – 2016. – №. 14. – С. 375-378.
3. Akramovich N. A. HISTORY, SUBJECT AND OBJECT OF FORMATION OF" MACROECONOMICS" //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 1. – С. 209-210.
4. Akramovich N. A. THE PRIORITY OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE AGRICULTURAL EDUCATION SYSTEM //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 10. – С. 185-191.
5. Uchkun S., Dilshod N. PROCESS OF IDENTIFYING THE SIGNIFICANT ACCOUNTS IN THE REVENUE CYCLE //Journal of marketing, business and management. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 32-36.
6. Nodira T. PRIORITIES FOR ORGANIZING ENTREPRENEURIAL ACTIVITIES IN THE AGRICULTURAL SECTOR //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 10. – С. 192-199.
7. Xaydarov B., Saitov S. Raqamli iqtisodiyot tushunchasi va afzalliklari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 634-635.
8. Xaydarov B. X., Saitov S. A. RAQAMLI IQTISODIYOT TUSHUNCHASI, AFZALLIKLARI AMALIY AHAMIYATI VA XORIJUY TAJRIBA //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 151-156.
9. Хайдаров Б. ИҚТИСОДИЙ ИСЛОҲОТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ //Экономика и образование. – 2021. – №. 4. – С. 288-292.
10. Бахром X. X. БИЗНЕСНИ РЕЖАЛАШТИРИШ ТАРТИБЛАРИ //PEDAGOGS журнали. – 2022. – Т. 12. – №. 2. – С. 139-142.
11. Xaydarov Baxrom Xolmuradovich, Xudayarov Rashid Tuychiyevich. (2022). RAQAMLI IQTISODIYOT BIZNESNI REJALASHTIRISH. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 110-113. Retrieved from <http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/130>
12. Xaydarov Baxrom Xolmuradovich, & Saitov Sirojiddin Abduvalievich. (2022). RAQAMLI IQTISODIYOTDA KICHIK BIZNESNNING O'RNI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 113-116
13. Xaydarov Baxrom Xolmuradovich. (2022). RAQAMLI IQTISODIYOTDA BUXGALTERIYA VA AUDITNI O'RNI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 128-131. Retrieved from <http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/135>
14. Baxrom Xaydarov. (2022). IMPACT OF INTELLECTUAL PROPERTY PROTECTION ON THE DIGITAL ECONOMY. Journal of Academic Research and Trends in

Educational Sciences, 1(11), 163–174. Retrieved from <http://ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/317>.

15. Saitov Sirojiddin, Tuychieva Nodira, & Saydullayeva Dinora. (2022). CHARACTERISTICS OF PRICE AND FORMATION. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 1(11), 265–270. Retrieved from <http://ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/329>

16. Saitov Sirojiddin, & Achilov Azizbek. (2022). TRANSITION TO THE MARKET ECONOMY AND ITS CHARACTERISTICS IN UZBEKISTAN. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 1(11), 255–258. Retrieved from <http://www.ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/327>

17. Akramovich N. A. THE PRIORITY OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE AGRICULTURAL EDUCATION SYSTEM //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 10. – C. 185-191.

18. Nizametdinov A., Ahmedova H. Elektron ta 'lim metodologiyasi rivojlantirishning usullari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 29-31.

19. Nizametdinov, A. A. (2022). OLIY TA'LIM TIZIMIDA AGRAR SOHANING USTUVORLIGI UNDA INNOVATSIYALARNING QULLANISHI. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1(6), 96–98. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/cf/article/view/104>

20. Nizametdinov, A. A. (2022). OLIY TA'LIM TIZIMINING AGRAR SOHASIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR QO'LLASH USTUVORLIGI. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1(6), 58–60. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/cf/article/view/96>

21. Akramovich N. A. HISTORY, SUBJECT AND OBJECT OF FORMATION OF "MACROECONOMICS" //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 1. – C. 209-210.

22. Nizametdinov A. et al. THE IMPORTANCE OF THE DIGITAL ECONOMY TODAY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 11. – C. 251-254.

23. Akramovich N. A. et al. RAQAMLI IQTISODIYOTNI O'ZBEKİSTONDAGI O'RNI //Conferencea. – 2022. – C. 67-69.

24. Nizametdinov Ali Akramovich. (2022). SUN'İY INTELEKTNI KADRLAR SIYOSATINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 251–253. Retrieved from <http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/171>